



Fidoyilik –  
Vatanga xizmat demak!

2025-yil 9-yanvar, payshanba,  
3 (24.029)-son

O'zbek xalq  
maqoli

Elning  
yirtig'iga  
yamoq bo'l,  
uzuniga uloq  
bo'l.

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan



www.zarnews.uz



twitter.com/zarnews\_uz

# HARBIY XIZMAT – BURCH, MAS'ULIYAT VA SHARAF



"Vatanimning mustaqilligini, uning sarhadlari daxilsizligini va hududi yaxlitligini, ona xalqimning tinchligi va osoyishitaligini, O'zbekiston Respublikasining milliy manfaatlarini hamda demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat tuzumini so'nggi nafasimgacha himoya qilishga tantanali ravishda qasamyod qilaman!".

Bu harbiy xizmatni o'tashga kirishgan har bir fuqaro tomonidan qabul qilinadigan muqaddas qasamyodning bir parchasi. Uni tantanali o'qish, yigitlik burchini, Vatan, el oldidagi vazifasini ado etish yurtimizdag'i har bir yigitning orzu-maqsadidir. Shu bois ular orasidan eng munosiblarini tanlab olish ham alohida mas'uliyat talab qiladi.

Shu kunlarda yurtimizda 2025-yilgi mudatli harbiy xizmatga chaqiriluvchilarini tanlovdan o'tkazish tadbiri qizg'in pallaga kirgan. Joriy yilning 10-fevraliga qadar davom etadigan saralaştirbirlari askar bo'lish orzusidagi mard o'g'lonlar hayotidagi muhim sinov hisoblanadi. Viloyatiy mizda ham jarayoning yuqori saviyada o'tishiha alohida e'tibor qaratilmoqda.

Aytish joizki, o'tgan vaqtida harbiy xizmatga chaqiriluv tadbirlerida qator islohotlar amalga oshirildi. Misol uchun, ilgari chaqiriluvchilar ro'yxatini shakllantirish faqat mudofaa ishlari bo'limlarining zimmasida edi. Joriy chaqiruv mavsumidan ayni mas'uliyati vazifa mahallalardagi yoshlar yetakchilariga o'tkazildi. Yangi tartibga ko'ra, yoshlar yetakchilar o'z hududidagi yoshlar kontingentiga qarab, 5 nafragacha chaqiruv yoshidagi yigitlar ni muddatli harbiy xizmatga jaib qilishi belgilangan.

Baracha chaqiriluvchilar umumijismoniy tayyorgarligini aniqlash sinovlari hamda yakka tartibdagi suhbatdan o'tadi. Albatta, belgilangan normativlar murakkab emas - turnikda tortilish, 100 metr va 3 ming metr masofaga yugurish. Yakka tartibdagi suhbatda chaqiriluvchilarning mahalla va jamiyat hayotidagi ishtiroti, madaniya-


ti, qiziqishlari, O'zbekiston tarixi, buyuk sarkardalarimiz va ajoddolarimiz hayoti va faoliyatiga oid bilimlari baholanadi. Yukunda sinov natijalari umumlashtirilib, chaqiriluvchiga tavsiya berilishi yoki rad etilishi mumkin.

Ayrimlar muddatli harbiy xizmatni o'tayotgan harbiy xizmatchilarga oly ta'lim muassasalariga o'qishga kirish uchun tavsiyanomalar berish tartibi bekor qilindi, degan noto'g'ri fikrda. Bu amaliyot bekor bo'lgani yo'q. Faqat endi u barcha harbiy xizmatchilarga berilishini boshlarmaydi. Muddatli harbiy xizmatni o'tayotgan harbiy xizmatchilarga O'zbekiston Respublikasi oly ta'lim muassasalariga o'qishga kirish uchun tavsiyanomalar berish tartibi to'g'risidagi nizomga muvoqfi, uni xizmat davomida jangovar va ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik bo'yicha yuksov natijalariga erishgan, zarur bilini saviyasiga ega, namunalni harbiy intizomini namoyon etgan harbiy xizmatchilar oladi.

Tavsiyanomaga ega bo'lgan fuqarolar respublikamizdag'i oly harbiy ta'lim muassasalaridagi tegishli tegishli ta'lim yo'nalishlariga o'qishga kirishda test sinovlari natijalariga ko'ra o'zlari to'plagan balning 50 foizi miqdorida qo'shimcha ball shaklidagi imtiyoza ega bo'ladi. Respublikaning boshqo oly ta'lim muassasalariga qabul parametrleridan tashqari ajratiladigan alohida qabul ko'satkichlari doirasidagi tanlovdan ishtirot etadi.

**Burxon QUVATOV,**  
viloyat mudofaa ishlari boshqarmasi  
boshlig'i, polkovnik.

# Zarafshon



2025-yilning ilk kunlaridanoq Samarqand shahri jamoat transportida o'zgarishlar ko'zga tashlandi. Yevropa tiklanish va taraqqiyot banking "Yashil shaharlar" loyihasi doirasida keltirilgan 100 ta elektrobusning barchasi yo'nalishlarga chiqa boshladi. Shu paytgacha Brutto shartnomasi asosida 8 ta yo'nalishda 50 ga yaqin jamoat transporti harakatlangan bo'lsa, endilikda yo'nalishlar soni 12 taga, transportlar esa 150 taga yetkaziladi.

- Samarcand shahar transport va yo'ni infratizilmasini rivojlanтиrish rejasiga asosan, 43 ta yo'nalishdagi jamoat transporti Brutto shartnomasiga o'tkazildi, - deydi viloyat transport boshqarmasi boshlig'i Ravshan Tojiyev. - Hozirda elektrobuslar erkin harakatlanishi uchun keng va ravon yo'nalishlar anqilanib, maxsus yo'laklar tashkil etilmoqda. Shuningdek, ular bilan yo'lovchilar uchun juda qulay bo'lgan Brutto shartnomasi tuzish ishlari olib borilmoida.

Ayni vaqtida 8 ta elektrobus M-1 sonli "Temiryo'l vokzali - Xalqaro aeroport", 10 tasi M-2 sonli "Vatanparvar mahalla-

si - Samarcand tuman markazi shifxonasi", 8 tasi M-4 - "Temiryo'l vokzali - Siyob bozori" yo'nalishida, shuningdek, M-5, M-15-sonli Temiryo'l vokzalidan boshlanadigan xalqa yo'nalishlarda, T-3 va T-4-sonli Kimyoqarlar qo'rg'onidan boshlanuvchi xalqa yo'nalishlarda hamda M-12-sonli "Hazorra ABB-Siyob ABB" shahar avtobus yo'nalishlarda yo'lovchilarga transport xizmatini ko'rsatmoqda.

Brutto shartnomasi tuzgan jamoat transportida harakatlanishi uchun yo'lovchilar "ATTO" kartalaridan foydalanshi lozim. Chunki birinchi avtobusga chiqqan yo'lovchi 1600 so'm to'lov qilsa,

shu soatning o'zida ikkinchi avtobusga minganida 400 so'm yo'l haqi to'laydi. Agar yo'lovchi 3 va 4 marta avtobusga chiqqanida esa bepul harakatlanishi mumkin. Mazkur "ATTO" kartalarini "O'zbekiston pochtasi" aksiyadorlik jamiyatni viloyat filialining barcha bo'lim va shoxobchalaridan xarid qilish mumkin. Bank kartalari yoki naqd pul bilan yo'l haqi to'lovchilar 2 ming so'mdan to'lashlariga to'g'ri keladi.

Brutto shartnomasi tuzgan avtobus haydovchilaridan kunlik tushum talab qilinmaydi. Chunki Brutto shartnomasi asosida ishlashda bosib o'tilgan masofa va yo'lovchilarga sifatlari xizmat ko'rsatilgani uchun to'lov tizimi yo'iga qo'yildi. Endi jamoat transportlari erta tong soat 6:00 da yo'nalishga chiqqib, kech soat 21:00 gacha harakatlanib, so'nggi yo'lovchini ham o'z manziliga yetkazib qo'yishga majbur bo'ladi. Ularning harakatlari GPS trekerlari bilan nazorat qilib borilmoida.

**Dilmurod TO'XTAYEV.**

## INDALOSINI AYTGANDA...

Dilorom  
YORMATOVA,  
professor:



- Dunyodagi eng yaxshi, o'xshashi yo'q hid yangi yopilgan non va tinch ugrayotgan go'dak hididir. Jahonda kuzatilayotgan turli vaziyatlar, global muammolar oziq-ovqat xavfsizligini asosiy masalaga olib chiqayotgan hozirgi davrda bu juda ahamiyatlidir.

## ODDIY O'YINLAR BILAN TUZALAYOTGAN BOLALAR

"ZARAFSHON"ning

YouTube

sahifasidagi  
videomateriallarni  
kuzatib boring!



## Bu yil soliq sohasida qanday o'zgarishlar bo'ladi?

Bilib qo'yan yaxshi

2024-yil 24-dekabrda "2025-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. Ushbu qonun bilan 2025-yilgi soliq sohasidagi o'zgarishlar ham tasdiqlandi. Unga ko'ra, foyda solig'i tovar (ish, xizmat)larning elektron savdosini amalga oshiruvchi soliq to'lovchilar uchun foyda solig'i stavkasi – 10 foiz etib belgilandi (oldin 7,5 foiz). Tovar (ish) larni eksportga realizatsiya qilishdan olingan foyda uchun 0 foiz stavkadagi soliq bekor qilindi. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalaridan (umumiy quvvati 100 kVt gacha) foydalangan holda umumiylar tarmoqqa, ya'ni "Elektroset"ga elektri energiyasini sotishdan olingan foydaga soliq solinmasligi belgilanganmoqda. Bunda, qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarishi ishga tushirilgan oydan boshlab 3 yil mobaynida foyda solig'i solinmaydi. Shuningdek, quyosh panellari quvvatining kamida 25 foizi miqdorida elektr energiyasini to'plash tizimi, ya'ni hajmi kattaroq bo'lgan akkumulyatorlar bilan quyosh panellari o'rnatilganda – bu panellar ishga tushirilgan oydan boshlab 10 yil davomida foyda solig'i solinmaydi.

### MOBIL ALOQA XIZMATLARI UCHUN AKSIZ SOLIG'I OLINMAYDI

Aksiz solig'idagi o'zgarishlarga ko'ra, 2025-yil 1-yanvardan mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig'i (10 foiz) bekor qilinmoqda. Shundan kelib chiqqib, Soliq kodeksining 283, 284, 285 va 286-moddalariga o'zgartirish kiritilmoqda.

Tamaki mahsulotlari uchun aksiz solig'i stavkalarini tenglashtirilmoqda. Xususan, filtrli, filtrsiz sigaretalar, papiroslar, sigarillar (sigaretalar), bidi, kretek uchun aksiz solig'i stavkasining foiz ko'rinishidagi qismi (10 foiz) bekor qilinmoqda hamda 1000 donasi uchun:

– respublikada ishlab chiqariladigan sigaretalarga 300 ming so'm;

– import qilinganlarga 330 ming so'm;

– import qilinganlarga 1 litr uchun 15 ming so'm etib belgilannoqda.

Respublikada ishlab chiqariladigan va import qilingan etil spirti uchun aksiz solig'i stavkasi tenglashtirilib, 1 litr uchun 15 ming so'm etib belgilannoqda.

– don distilyatiga (dondan olingan alkogolga) nisbatan etil spirtiga belgilangan



Respublikada ishlab chiqariladigan va import qilingan tabiiy vino, boshqa vinolar, shu jumladan, vermut, pivolarga aksiz solig'i stavkalarini ham ishlab chiqarishda oshirish va import qilinganda pasaytirish orqali bosqicha-bosqich tenglashtirish nazarda tutilmoqda.

### O'ZIMIZDA QAZIB OLINGAN TABIIY GAZNING REALIZATSISIYU UCHUN AKSIZ SOLIG'I 12 FOIZGA PASAYTIRILDI

2025-yil 1-apreldan neft mahsulotlari (benzin, dizel yoqilg'isi, avakerosin, motor moyi), shuningdek, benzinni, dizel yoqilg'isini va gazni yakunni iste'molchiga realizatsiya qilishda aksiz solig'i stavkalarini 10 foizga indeksatsiya qilinmoqda. Respublikada qazib olingan tabiiy gazni realizatsiya qilishdagi qo'llaniladigan aksiz solig'i stavkasi 20 foizdan 12 foizgacha pasaytirilgan holda import qilingan tabiiy gazni iste'molchiga realizatsiya qilishda xuddi shu kabi 12 foizlik aksiz solig'i stavkasi o'rnatish nazarda tutilmoqda.

(Davomi 2-sahifada) >>>

# SUDYA

## tarozisidagi KO'RINMAS pallalar



Ularni sahna yoki davralarning to'rida ko'rmasiz. Jamiaty oldidagi xizmatlarini pesh qilib, alohida hurmat yoki ehtirom ham talab qilishmaydi. Sudya lavozimiga loyiqlik mezonining asosiy shartlaridan biri ham shu. Shundanmi, barchamiz sudya kim ekanligini bilamiz-u sudyalik qilish mas'uliyati haqida tasavvurga ega emasmiz. Tajribali huquqshunos, viloyat sudining jinoyat ishlari bo'yicha sudyasi Farrux Samatov bilan noodatliy suhbatimiz orqali sudyalar hayoti va faoliyatining o'ziga xos jihatlarini ochiqlashga harakat qildik.

### Suhbatni umumi savoldan boshlasak. Sizingcha bugungi kun sudyasi kim?

Dunyoda kasblar ko'p va ularning har birida o'ziga yarasha mashaq-qat va qiyinchiliklar bor. Sudyalik esa ay ni kasblarning eng murakkabi va o'z navbatida mas'uliyatiirog'i deb o'yayman. Sababi sudyaning faoliyatini natijasida insonlar taqdirla hal bo'ladi. Buni anglash, o'zini tarbiyalab voyaga yetkazgan, bilin va mansab bergan xalqi oldidagi javobgarlik hissini tuyish sudyallikning bosh mezonis hisoblanadi.

To'g'ri, sudda barchani rozi qilib bo'imaydi. Lekin sudya hech kimning tarafkashi ham bo'lomaydi. Tarozi ushlab turgan Femida siymosining ko'zlar yopiqligi sababi ham shunda. Ya'ni, hukm chiqaruvchi kimga adolat qilayotganini bilmasligi kerak.

### Siz bu sohaga qanday kirib kelgansiz? Afsuslanish holatlari ham bo'lganmi?

Olamizda huquq-tartibot idoralarida ishllovchilar yo'q. O'smirligimizda sindfoshimning prokurator otasi kiyib kelgan xizmat kiyimiga havas qilib, huquq sohasiga qiziqishim ortgan. Yillar davo-mida bu havas intilish, maqsadga aylanib, mayoq kabi yo'limni yordidi. Huquqshunos bo'ldim, keyin sudyalik nisab qildi.

Sudyalikka o'tish jarayoni ham tez bo'lmagan. 11 yil davomida sudda xodim bo'lib ishlagnaman. Keyin-chalik tegishli malaka imtihonlaridan o'tib, sudyalikka tayinlandim. Albatta, tanlagan kasbim oson emas. Boshida sudya bo'lganimdan afsuslangan vaqtanim ham bo'lgan. Lekin qiyinchiliklarni o'z ustimid ishlab, tajriba ortirib, yengib kelyapman.

### Faoliyatindagi eng murakkab ishni eslang. U sizga nimani o'rnatdi?

Faoliyatimdagidagi eng murakkab va yodimdan chiqmaydigan ish sudyalik vazifasiga endi tayinlangan vaqtlarim ga to'g'ri keladi. Soxta tadbirkorlik bilan bog'liq iqtisodiy jinoyatni ko'rib chiqqanman o'shanda. Juda uzoq davom etgan ish. Hali amalji tajribam kam bo'lgani uchun xato qilishdan qo'rqaqman.

Bu ish menga katta maktab bo'lgan. Egnimdagidagi yupqa matoli mantiya qancha "yuk" bosishimi o'shanda anglagmannan. U orgali sudyada nafaqat huquq, balki iqtisod, hatto maktabdagidagi oddiy matematika fanidan olingan bilim ham asqotishini, sudyada o'qib-izlanish dan to'xtamasligi kerakligini anglab yetdim.

### Hukm o'qishda nimalar e'tiborga olinadi? Aytaylik, sudsuanuvchining qaramog'ida oilasi, ota-onasi bor. Sud esa jazo muqarrarligini ta'minlash kerak.

Jinoyat kodeksida ayb uchun javobgarlik ja vavobgarlik muqarrarligi, degan tamoyillar bor. Avvalo, fuqarolar ham qonunni buzgani uchun javobgarlik borligi va bu javobgarlik muqarrar ta'minlanishi angashi kerak. Shunda jinoyatlar soni kamayadi.

Sud masalasiga kelsak, unga

# SUDYA

## tarozisidagi KO'RINMAS pallalar

### Bizning suhbat

imkon bordir, lekin tajriba vaqt bilan keladi. E'tiborli, bugun tajribasi kam sudyalarning ham "Ustoz-shogird" an'anasi asosida malaka oshirishi yo'iga qo'yilgan.

Bilamizki, sudda doim yutgan va yutqazgan tomon bo'ladi. Yutqazgan tomon sud qaroridan rozi bo'lishi kamdan kam uchraydi. Buni to'g'ri qabul qilish kerak.

### Sohaga taalluqli tadbirlardan birida "Sudya ishdan tashqarida ham sudyasi", degan fikr aytigandi. Buning ma'nosi qanday?

Bu yerda urg'u sudyaning qaror chiqarishiga emas, ko'proq yurish-turish madaniyatiga berilgan. Sudalar odobi kodeksi bor. Hujjat sudyu uchun odil sudlovini amalga oshirish bilan bog'liq kasbiy faoliyati, shuningdek, xizmatdan tashqari vaqtida amal qilinishi lozim bo'lgan odob-axloq, xulq-atvor qoidalarini belgilaydi.

Unga ko'ra, sudyu odob va axloqning umume tirol etilgan qoidalariga amal qilishi, haq qanday vaziyatda haqiqatparvar bo'lishi, sud hokimiyatining nufuzini tushridigan va sudyaning obro'-e'tiboriga putur yetkazadigan yoki uning xolisligi, mustaqiligi va beg'arazligiga shubha tug'dirishi mumkin bo'lgan xatti-harakatlardan o'zini tiyishi shart. Shuningdek, u muayyan sud ishi bo'yicha huquqiy maslahat berishga va o'z fikrini bildirishga, shuningdek, sudda ko'rilgan yoki sud ish yurituvidagi ishlarni xizmatdan tashqari holatda muhokama qilishga haqli emas.

Turli vaziyatlar bo'ladi. Aytaylik, bir davrada o'tirgan tanihsizning ishini ko'rib chiqishga to'g'ri keleshim kumkin. Yoki kimdir yaqinlarigiz orqali ta'sir o'tkazmoqchi bo'ladi. Bularning oldini olish uchun ham to'g'ri ishlash va to'g'ri yashash kerak. Bir so'z bilan aytganda, sudyu jamoat odamini bo'la olmaydi.

### Ochig'i, bu kasb tasavvur qilganimizdan ham murakkabroq ekan. Bir tomonda insonlar taqdirlari, ikkinchi tomonda qat'iy intizom. Aytig-chi, unda nega huquqshunoslar sudyu bo'lishga intiladi? Faqt adolatni ta'minlash uchunmasdir?

Savolning mazmunidan kelib chiqib, birdan aytaman - sudyu bo'lib boyib ketolmaysiz. Hech milliarder sudyani ko'rganmis? Yo'q, albatta. Ishimiz qanchalik murakkab bo'lsa, shunchalar sharafli hamdir. Sudying qarori bilan kimdir jazonishi mumkin. Lekin shu qaror ikkinchi tomonning huquqlari tiklanishi, adolat ta'minlanishi obib keladi. Tangangan ikkinchi tomonini ko'ra biladigan, matonatl, sabrli insonlarga sudyalikka loyiq bo'ladi.

### Sudya bo'lishni orzu qilayotgan yoshlarga qanday maslahatlarigiz bor?

Bugun yurtimizda sud tizimini rivojlantirishga e'tibor ortgan. Xususan, sudyu bo'lish talablari ham yengilashtirilgan. Lekin bu sudyalik qilish osonlashdi, degani emas. Yuqorida aytganimdek, boyib ketish uchun sudyu bo'laman, deydiganlar adashadi. Ularga omadini tadbirkorlikda sinab ko'rishni maslahat bergan bo'lardim. Modomiki, kasbga mehr qo'yan ekan, bunday yoshlar tinimsiz o'qib-izlanishi, ham shaxs, ham mutaxassis sifatida kamol topishi kerak.

### Samimi suhbat uchun rahmat!

Asqar BAROTOV  
suhbatlashdi.

# BUYIL SOLIQ SOHASI

## da qanday o'zgarishlar bo'ladi?

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

2025-yil 1-apreldan tarkibida shakar mavjud bo'lgan gazlanmagan salqin choylar, meva sharbatlari, sanoat usulida ishlab chiqarilgan kompotlarning va boshqa gazlanmagan shakarli ichimliklarning 1 litri uchun ham 500 so'm miqdorida aksiz solig'i joriy etilmoqda. Bunda meva-sabzavotlardan tayyorlangan, tabiy shirin (tarkibida fruktova, gulykoza bo'lgan) va qo'shimcha shakar qo'shilмаган sharbatlar uchun aksiz solig'i qo'llanilmaydi.

Tarkibida shakar mavjud bo'lmagan, shirinlashtiruvchi yoki xushro' yashtiruvchi moddalar mavjud bo'lgan gazlangan ichimliklarning 1 litri uchun aksiz solig'i stavkasini 500 so'mdan 300 so'mgacha pasaytirish nazarda tutilmoxda. Shuningdek, gazlanmagan xuddi shunday ichimliklarga ham 1 litri uchun 300 so'm miqdorida aksiz solig'i stavkasi joriy etilmoqda.

### MOL-MULK SOLIG'IDA QANDAY O'ZGARISHLAR BO'LIDI?

Yuridik va jismoniy shaxslarning noturar obyektlari bo'yicha mol-mulk solig'ining asosiy stavkasini 1,5 foiz miqdorida saqlab qolgan holda soliq bazasini aniqlashdagi 1 kvadrat metr uchun o'nataligani minimal qiyamt quyidagicha belgilanmoqda:

Toshkent shahri uchun - 3,3 million so'm (amalda 3 million so'm), Nukus shahri va viloyat markazlari uchun - 2,2 million so'm (amalda 2 million so'm) boshqa joylar uchun - 1,3 million so'm (amalda 1,2 million so'm).

Soliq kodeksining 422-moddasiga o'zgartirishlar kiritish orqali jismoniy shaxslarning turarjoy obyektlari bo'yicha jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i stavkalari 10 foiziga indeksatsiya qilingan holda quyidagicha belgilanmoqda:

respublika bo'yicha joylashgan, umumiyyatdoni 200 kvadrat metrgacha bo'lgan uy-joylar va kvarтиралар, dala hovli imoratlari uchun - 0,34 foiz;

shaharlarda joylashgan, uy-joylar va kvarтиralar, dala hovli imoratlari uchun:

- 200 kv m dan ortiq va 500 kv m gacha bo'lganlar uchun - 0,45 foiz;

- 500 kv m dan ortiq bo'lganlar uchun - 0,6 foiz.

boshqa aholi punktlarida joylashgan, umumiyyatdoni 200 kv metrdan ortiq bo'lgan uy-joylar va kvarтиралар, dala hovli imoratlari uchun - 0,45 foiz;

shaharlarda joylashgan, uy-joylar va kvarтиralar, dala hovli imoratlari uchun:

- 200 kv m dan ortiq va 500 kv m gacha bo'lganlar uchun - 0,45 foiz;

- 500 kv m dan ortiq bo'lganlar uchun - 0,6 foiz.

boshqa ahollari punktlarida joylashgan, umumiyyatdoni 200 kv metrdan ortiq bo'lgan uy-joylar va kvarтиралар, dala hovli imoratlari uchun - 0,45 foiz;

tsitsi qishmat ko'rsatuvchi yuridik shaxslar QQS to'lovchisi bo'ladi. Bunda soliq to'lovchilar uchun QQS o'tishda qo'shimcha yengillik yaratish mabsadida QQS hisobotlari soliq organlari tomonidan mavjud ma'lumotlar asosida avtomatik tarzda shakllantiriladi.

amortizatsiya normalarini qo'llash hisobidan bekor qilinadi.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolarni ish bilan ta'minlash bo'yicha manzilli imtiyozlar QQS va foyda solig'i stavkalari 2028-yil 1-yanvara qadar o'zgartiraydi (QQS 12 foiz, foyda solig'i 15 foiz (bazaviy stavka).

2025-yil 1-yanvardan 2028-yil 1-yanvarga qadar tikuiv-trikotaj, poyabzal va charm-attorlik sanoati mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar uchun foyda solig'i va xodimlari uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i stavkalari 1 foiz etib belgilandi. Imtiyozini qo'llash uchun quyidagi barcha shartlarga bir vaqtning o'zida javob berishlari shart:

jami xodimlar sonining kamida 15 foizi ijtimoiy himoya yagona reestri va Kambag'ol oillar reestriga kiritilgan oillar a'zolari bo'lishi;

har oyda har bir xodimga ish haqni miqdori mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 2 baravari (2 310 000 so'm)dan kam bo'lmagan miqdorda hisoblanishi;

soliq davrida tikuiv-trikotaj, poyabzal va charm-attorlik mahsulotlari realizatsiya qilishdan tushgan umumiyyat tushumni jami tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadning kamida 90 foiziga tashkil etishi;

Ma'lumot uchun, charm, mo'yna xomashyini va junni tayyorlash, saqlash hamda qayta ishlash, qoramolni avtomatlashirtilgan tarzda so'yish, jun, qorako'l va sun'iy charmidan buyumlar, charm-attorlik mahsulotlari, poyabzal ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi soliq to'lovchilar 2026-yil 1-yanvargacha foyda solig'i, aylanmadan olinadigan soliq yuridik shaxslar mol-mulk solig'idan ozod etilgan.

QQS zanjirini to'laqoni ta'minlash, shuningdek, bozorda teng sharoit va adolatliti raqobat multini yaratish maqsadida 2025-yil 1-apreldan daromadidan qat'i nazar, farmatsevtik mahsulotlari savdosini bilan shug'ullanuvchi yoki tibbiy xizmat ko'rsatuvchi yuridik shaxslar QQS to'lovchisi bo'ladi. Bunda soliq to'lovchilar uchun QQS o'tishda qo'shimcha yengillik yaratish mabsadida QQS hisobotlari soliq organlari tomonidan mavjud ma'lumotlar asosida avtomatik tarzda shakllantiriladi.

### O'ZINI O'ZI BAND QILADIGAN SHAXSLAR UCHUN FAOLIYAT TURI KENGAYADI

O'zini o'zi band qiladigan shaxslar uchun faoliyat turlari ro'yxati kengayrilib, "Artemiya tsitsi jonzodlarini yig'ish" va topshirish" (dunyo tajribasida artemiya tsistalarini asosida olingan mahsulotlar 5 ta sohada, ya'ni akvamadaniyat sanoatida, agrosanoat kompleksida, farmatsevtika, meditsina va kosmetologiyada keng qo'llaniladi) faoliyati qo'shildi.

Ko'chma savdo obyektlarini tashkil etgan shaxslarga soliq imtiyozi beriladi.

Soliq kodeksining 483-moddasiga kiritilgan o'zgarishlarga ko'ra, magistral avtomobil bo'yili bo'yida ko'chma savdo obyektlarini tashkil etgan yoshlar (30 yoshdan oshmagan shaxslar) faoliyatini amalga oshirish boshlangan sanadan e'tiboran dastlabki 6 oyda tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadlar bo'yicha soliqlarni to'lashdan 2028-yil 1-yanvarga qadar ozod etiladi. Ehtiyojmand oila a'zolari ishga qabul qilgan tadbirkorlarga soliq imtiyozi beriladi.

Soliq kodeksining 483-moddasiga kiritilgan o'zgarishlarga ko'ra, mehnatga haq to'lash eng kam miqdorining 1,5 baravaridan kam bo'lmagan oylik haqni haq qo'shish uchun qo'shing'ish uchun 10 million AQSh dollaridan oshgan dastlabki 6 oyda tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadlar bo'yicha soliqlarni to'lashdan 2028-yil 1-yanvarga qadar ozod etiladi. Ehtiyojmand oila a'zolari ishga qabul qilgan tadbirkorlarga soliq imtiyozi beriladi.

Prezidentimizning 2024 yil 20-dekabrda "Hududlarda yuqori iqtisodiy o'sish va aholi bandligini ta'minlashning yangi tizimini yo'ga qo'yish hamda bu borada mahalliy hokimliklarning roli va mas'uliyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga ko'ra, mahalliy davlat hokimiyati organlariga quyidagi moliyaviy imkoniyatiga beriladi:

2025-yil 1-yanvardan aylanmadan olinadigan soliq, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq, yuridik shaxslardan olinadigan yoritmatba faoliyatlari qilishning oldini olish to'g'risida, davlat aktivlari ijaraga berishidan tushumlarni to'liq hajmida hamda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i tushumlarning qismida (shu jumladan, royalti to'lanadigan) foyda solig'i to'lashdan ozod qilinadi.

Istisno - O'zbekiston Respublikasi bilan ikki yoqlama soliq solishning oldini olish to'g'risida bitim tuzg'an dav

Navoyidan maktub

Hayotiy tajribam shuni ko'rsatdiki, agar inson birovga yaxshilik qilishni ko'ngildan istasa, u bu ishni qanday yo'l bilan bo'lmashin, amalga oshiradi. Umuman, qalbi toza odamlarning fikri-yodi doimo kimadir yaxshilik qilishda bo'ladi, muhim, ular buni turmush tarzi deb tushunadi. Samarqanda o'qib, kamol topib, shu ulug' naqlini anglab yetganim uchun ustozimning yaxshiliklarini eslashni lozim topdim.

## Himmat ko'ngildan boshlanadi

Samarqand davlat universiteti fizika fakultetini tugatish arafasida olyigimiz Moskva davlat universiteti bilan hamkorlik shartnomasini tuzdi. Kafedra mudirimiz, rahmatli Ne'mat Badalov men va do'stim Sh.Xushmuromovning oxirgi ikki kursni Moskvida o'qishimizni ma'lul ko'rdi. O'zimizda ham qiziqish yo'q emasdi. O'sha paytda bizga Moskvdan ma'ruza o'qishga kelgan Tolib Mo'minov ustozimizga qarab "Domla, avvalo, shogirdlarga kuyinchak bo'lganligingiz uchun rahmat! Agar xo'p desangiz, bular diplomini olgach, shu ishni qilsak, aks holda, ular Samarqandga qaytmasligi mumkin", dedi. Tabiiyik, sal xafa bo'ldik, o'rindik, faqat o'qishni bitirgandan so'ng 1982-yilda Dubna shahriga, Birlashgan yadro tadqiqotlari institutiga aspiranturaga borgani mizda Tolib Musayevich aytgan yo'l to'g'ri ekanligini his qildik. Negaki, ko'pchilik barvaqt kelganligi bo'ismi, shu yerda uylu-joyli bo'lib ketgan, yurtiga qaytishni o'ylamaydi ham. Buz esa uylanishiga ulgurgandik. Domla O'zbekiston uchun mutaxassis kadrlar naqadar kerakligini o'sha paytdayoq tushunib yetgan ekan.

Tolib Mo'minov aspirantura masalasida ham bizga chinakam himmat ko'rsatdi. ToshDU (hozirgi O'zMU) huzurida amaliy fizika ilmiy tadqiqot instituti tashkil qilib, ana shu olyigohda ishlash uchun stajirovka va aspiranturaga yo'l ochdi. Bu ajratilgan o'rinalarning bittasi kamining tegidi. O'shanda domla bilan rejalor haqida suhbatlashdi. Men Moskva davlat universiteti professori V.Shpinel bilan munosabatim borligi, o'sha kishining



oldiga borishim mumkinligi haqida aytdim. Ustoz esa "Bunday munosabatingni qo'llayman. Lekin sen hali talabalik kayfiyatidin chiqqanigan yo'q. Moskvdan qiyinlib qolishing tabiiy. Yaxshisi Dubnaga yuboraman, ustozim Vladimir Morozovga tayinlayman, qiyalmaysan", dedi. Darhaqiqat, bu gal ham domlaning tutgan yo'li samara berdi. Yotoqxona va boshqa sharoitlar muhayyo etildi.

Dissertatsiyamni himoya qilib qaytgach, ilmiy tadqiqot institutida Tolib Musayevich bilan gamma nurlar albedosi yuzasidan birligida tadqiqot qilishga to'g'ri keldi. U kishi barchaga birdek munosabat qilardi. Ishlayotgan joyimizda yurakdan suhbatlashar, har bir xulosamizning mohiyatini so'rab olar, mabodo tushunmasak, izohlashdan erinmasdi.

Tolib domla amaliy fizika institutining Samarqand filiali hududida ixchamgina bog' ham tashkil qildi. Shogirdlari bilan nihol ekdi, poliz ekinlar yetishtirdi. Ustoz "Unutmangalar, ukalar, odamlar tomorqangizning ahvoliga qarab, ichki madaniyatengizga baho beradi", derdi.

O'laviy sharoitim tufayli Navoiy davlat universitetiga ishga ketdim. O'shanda shogirdlarim SamDUda magistraturada o'qib, T.Mo'minov

rahbarligida radioekologiya bo'yicha ilmiy tadqiqot olib bordi. Ularni yo'qlab borganimda domlani hamisha ish ustida yoki shogirdlariga nimanidir tushuntirayotgan paytda uchratganman.

2019-yilda Moskva muhandislik instituti Milliy yadro tadqiqotlari universiteti magistraturasiga tanlov o'tkazdi. Unda g'olib chiqqan shogirdlarim Sardor Adizov, Maqsudjon Xudoberdiyev, Vohid Qudratov O'zbekistonda atom elektr stansiyasi qurilishida ishtirok etish uchun davlat dasturi asosida ana shu magistratura ga yuborildi. O'shanda Tolib Musayevich menga telefon qilish, "Tabriklayman, umringiz behuda o'tmayapti, ana shunday iqtdorli yoshlar bilan ko'proq ishslash kerak, ularni qo'llab turish lozim. Shogirdlarigiza qo'yilgan baho - sizga qo'yilgan bahodir", degani hamon qulog'imda jaranglaydi.

Xulosa o'rnda aytish mumkinki, jamiyatning bugungi bosqichi Tolib Musayevichdek bilimdon, bag'rikeng ustozlar niyoyatda kerakligini ko'rsatmoqda. Samarqandda esa bunday odamlar ko'plab topiladi va ularning safi ortib boraversin.

**Elboy XUDOYBERDIYEV,  
Navoiy davlat universiteti  
professori.**

bor, uydan ayollar sarta-roshxonasi ochdirik, yomon emas, ro'zg'orga yordam bo'yapti. O'zim uchun ham bitta ustaxona ochdim, mashina ta'mirlaymiz, yonimga ukalarimni oldim. Endi chetga borib, sarson bo'imoqchi emasman. Shu yerda ishlashim, pul topishim uchun imkoniyat yaratdim. Shuning uchun men qatorli ishlab pul topgan o'rtoq'imming bor budi ni bitta to'ya sarflab, yana qarz bo'lib qolib, xoriya ishga ketayotganidan xafa bo'ldim.

Gap bilan bo'lib, manzilga yetib qolganimni sezmabman. Hamrohimming fikrleridan zavqlanib, uning ishlariga omad tilidim. Qaniydi, boshqalar ham shu yigitdekk fikrlab, o'ylab ish qilsa.

**Ne'mat ASQAROV,  
Past Darg'om tumani.**

## Ikki xil dunyoqarash

topgan pulini bir kunda so-vurganiga ichim achidi. Eng yomoni, shuncha ovqat, taomlar hammasi yeyll-gan emas, qanchasi isrof bo'ldi. Do'stinga "Sizga shuncha sarf-xarajat qilish nima zarur, shu pullarni uy-joyingizga, bolalaringiz o'qishi, yaxshi yeb-ichishiga sarflasangiz bo'lmaydimi, yangi ro'zg'or eksanzim" dedesam, "nima qilay, elchilik, bizada shunaqa qilib to'y qilmasangiz, odam qatoriga qo'shishmaydi" dedi mayus tortib. Xullas, kecha to'y o'tdi, bugun ertalab yo'lg'a chiqayotganimda endi nima ish qilmoqchisiz, shu yerda ishlaysizmi, deb so'rasam, o'rtoq'im endi ota-onasini umra safarija yuborish, uyining chala qurilishini bitirish uchun yana chetga ketishini aytganda unga

nima deyishni bilmadim. Hamrohimming gaplarini eshitib, bunday halot yon-atrofimizda, ko'p joyda borligini aytdim. U esa "Bizda to'yni burchalik dabbabli qilib o'tkazishmaydi, hozir odamlar anchana tartibga kelib qolgan", dedi.

— Qashqadaryolik o'rtoq'im ikimiz besh yil birga ishlatik, xudoga shukr, yaxshi pul topdik, — dedi u. — Men ham qishloqda yashayman, sharoitim shunga yarasha edi. Pul topganidan so'ng, avalo, ota-onam va bolalarim uchun uysa quray sharoit yaratishga e'tibor qildim. Bolalarimni qo'shishcha to'garaklarga berdim, o'qishi uchun nima zarur bo'lsa, qilaman. O'zim o'qimadim, farzandlarimni albattra, o'qitmoqchiman. Xotinimning qo'lida hunari

marhum Xudoberdiyev Akbarga (2013-yil 21-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'larning Jo'rayev Mubin Ne'matovichning notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil:** Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.  
Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Jo'rayev Mubin Ne'matovichning notarial idorasida marhum Xudoberdiyeva Xadicha Imamkulovnaga (2022-yil 25-fevralsda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'larning Jo'rayev Mubin Ne'matovichning notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil:** Samarqand shahri Abdurahmon Soniy ko'chasi, 1-uy.  
Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Islamov Shuhrat Qarshiboyevich notarial idorasida marhum Amonov Asanmuddin Mixliyevichga (2021-yil 4-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'larning Islamov Shuhrat Qarshiboyevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil:** Payariq tumani Chelak shaharchasi, Iстиқол ко'chasi, 13-uy.  
Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasida marhum Amonov Asanmuddin Mixliyevichga (2021-yil 7-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'larning Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil:** Payariq tumani Chelak shaharchasi, Iстиқол ко'chasi, 13-uy.  
Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasida

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasida marhum Gaziyev Gofur Urakovichga (2024-yil 8-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'larning Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil:** Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.  
Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasida marhum Gaziyev Gofur Urakovichga (2024-yil 8-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'larning Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil:** Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.  
Narpay tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Eshniyozov Dilshod Qurbonovich notarial idorasida marhum Quvondiqov Sherali Muxammadiyevichga (2022-yil 24-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'larning Eshniyozov Dilshod Qurbonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil:** Narpay tumani "Salovot" MFY.  
Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Murtazayev Ulug'bek Rabbimovich notarial idorasida marhum Mansurov Faridtin Madjidovichga (2024-yil 7-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'larning Mur-

baraka keltiradi. Suyun domla nomzodlik, doktorlik ishlarini ko'p qator qoqlagan bo'lsada, tilshunoslik ilmida o'ziga xos maktab yarata oldi. Zulfiya, Abdulla Qahhor, Hamid Olimjon kabi adiblar asarlari til stilistikasini o'rganish uslubini takomillashtirdi.

Shuning barobarida ustoz R.Qo'ng'urovning hayoti, ibratli ilmiy pedagogik faoliyatiga haqida "Bo'lub ilmi hikmatda ustodi fan" nomli kitob yozdi. Darvoqe, domlaning rahbarligida olimlik darajasiga yetgan Azamat Pardayev, Shavkat Mahmadiyev, Baxtiyor Xolmammedov, Dilbar O'rinoyleva, Svetlana Umirova, Orzubon Yusupova kabi shogirdlari ayni paytda bu kishi bilan bir safda tilshunoslik fanidan saboq bermoda.

Olimning yutug'i shundaki ilm-fanni inson hayotini tabarruk qiluvchi jarayon sifatida tushunadi. Nafaqat shogirdlari, balki mahalla-ko'y oldida ham tilimizning latofati, adiblarning mahorati haqida gapirishdan erinmaydi. Ilmiy-adabiy olimlar tilimizning ahamiyatini va nazokati haqida ma'ruzalar qilishdi. Shunda Suyun Karimov ko'plab ustozlari qatori ukasi, huquqshunos Egamberdiga ham to'n po'pidi. Kimlagraj erish tuyulgan bo holatga men havas qildim. Chunki uning davralarda "Allomalarimiz seni yaxshi-yomon kunda ham birdek yaxshi ko'radigan qavuqarindoshlarining hurmatini joyiga qo'y", degan gapini ko'p bor eshitgaman. Va bir-ikki yil o'tgach, ukasining to'satdan vafot etganida Suyun domla o'shanda naqadar oqilona yo'l tutganini anglab yetdim. Aytgandy, u "Ukajonim - jigarbandim Egamberdi" degan kitob ham yozdi.

Bir kuni shogirdlari Suyun domladan kamtariladi, oddiylikning manbai nimadur, deb so'rashgan. Shunda u kishi "Ukalarim, inson qalbinining halovati, hayotining faro'ati, ilmining kamoloti, muddaonsining adolati avvalo, uning samimiyatidadir", deb javob bergan. Bugun 75 yoshini kutib olayotgan birodarimga menimcha bundan ortiq tarifning keragi yo'q.

**Abdushukur MUHAMMADQULOV, mehnat faxriysi.**

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lolar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

### DA'VOLAR BO'LSA...

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qodirov Ulug'bek Tolibovich notarial idorasida marhum Igamberdiyev Nasiriga (2012-yil 3-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'larning Jo'rayev Mubin Ne'matovichning notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil:** Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zairovna notarial idorasida marhum Xakberdiyev Igamberdiga (1983-yil 7-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'larning Jo'rayev Mubin Ne'matovichning notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil:** Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 158-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Jo'rayev Mubin Ne'matovichning notarial idorasida marhum Mukumov Anatolix Raximovichga (2018-yil 9-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'larning Jo'rayev Mubin Ne'matovichning notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil:** Samarqand shahri Abdurahmon Soniy ko'chasi, 1-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Jo'rayev Mubin Ne'matovichning notarial idorasida

marhum Gaziyev Gofur Urakovichga (2024-yil 8-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'larning Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil:** Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasida marhum Safarov Rustamga (2024-yil 8-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'larning Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil:** Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.

Narpay tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Eshniyozov Dilshod Qurbonovich notarial idorasida marhum Quvondiqov Sherali Muxammadiyevichga (2022-yil 24-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'larning Eshniyozov Dilshod Qurbonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil:** Narpay tumani "Salovot" MFY.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Murtazayev Ulug'bek Rabbimovich notarial idorasida marhum Mansurov Faridtin Madjidovichga (2024-yil 7-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'larning Mur-


tayev Ulug'bek Rabbimovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil:** Samarqand shahri Orzu Mahmudov ko'chasi, 12-uy.

### BEKOR QILINADI

Samarqand shahridagi "

# O'Z DAVRINING HAQIQIY ZIYOLISI, MILLATNING CHINAKAM FIDOYISI



- Mahmudxo'ja Behbudiy 1875-yil Samarqand shahrida muftiyo oиласида dunyoga kelgan.
- 1902-yilda Makkaga boradi. Qozon va Ufa shaharlariда bo'lib, Yevropa madaniyatini bilan tanishadi. Qozon, Orenburgda chiqadigan arab imlosidagi gazeta va jurnallar tahririylari bilan hamkorlik qildi.
- 1912-1913-yillarda Samarqandda "Samarqand" gazetasi, "Oyina" jurnalini tashkil etadi.
- Behbudiy birinchi o'zbek dramasi – "Padarkush"ni yozib, sahnalashtiradi.

## Ma'rifatga sarmoya savobli ishdır



Mahmudxo'ja Behbudiy o'z davrining haqiqiyyi ziyoysi, millatning chinakam fidoyisi edi. U o'ziga to'q va ilmi oila olib tuzil o'sdi. Shu sababli ham butun umrini ma'rifatga bag'ishlay oldi, o'ziga qarashli shirkat va yerlardan olinadigan daramadlarni ham xalq manfaati yo'lida sarfladi. Nati-jada el orasida yuksak salohiyatga ega bo'ldi.

Xalq xonliklarning o'zaro urushlaridan, rus imperiyasi zug'umlaridan charchaganligini hisobga olib, u eng avvalo, millatni, uning farzandlarini savoldi, ilmi qilish kerakligini tushunib yetdi. Ana shu g'oyasi bilan atrofiga o'ziga o'xshagan elsevar ziyolilarini to'play oldi. Tariximizda jadidchilik nomi bilan atalgan bu harakat o'sha davrda mintaqamizda chinakam uyg'onish davri edi.

Mahmudxo'ja Behbudiyning siyosiy qarashlari o'z zamонидан nafaqat mamlakat, balki tashqi dunyoda ham e'tiborga molik bo'lgan. Xususan, "Haq berilmas, olinur" shiori millat fidoyilarini chinakam hushyorlikka chorladi. O'tgan asrnning boshidayoq ma'rifatparvar bu inson Turkiston o'lkasining ma'rify konsepsiyasini yaratishga va uni imperatorga havola qilishga muvaffaq bo'ldi. Bundan tashqari, "Turkiston muxtoriyati" harakatining yetakchilardan bo'ldi. O'zi ta'kidlaganidek, xalq ozodligi yo'lida agar lozim bo'lsa, jonini berishga ham tayyor edi.

Bu insonning yana bir buyuk xizmati shundan iboratki, u o'z hisobidan maktablar ochdi, alifbo va boshqa darsliklar chiqardi, bu harakati orqali xalq ma'rifatiga sarmoya kiritdi. Muhibimi, Samarqandda ziyolilar hamkorligida aynan yangi qarashdagi milliy matbuot tamal toshini qo'ydi. Bu tahririyat atrofida Markaziy Osiyonning turli mintaqalaridan ijodkorlar kelib faoliyat ko'rsatdilar. "Samarqand" "Hurriyat", "Kambag'allar tovush", "Mehnat-kashlar o'qi" kabi ko'plab nomlarda chop etilgan nashri bugungi kunda "Zarafshon" nomi bilan faoliyat ko'rsatmoqda.

Mahmudxo'ja Behbudiy Turkistonda

birinchi bo'lib "Padarkush" dramasini yozdi va bu asarning ommalashuvni orqali xalqqa sahna asari ibratxonada ekanligini tushuntira oldi. Tahririyatdagi va umuman, atrofidagi barcha iqtidorli ijodkorlarni qo'llab-quvvatlashdi, ularning boshini biriktirdi. Bundan tashqari, musulmon davlatlari ziyolilarini bir-birini qo'llab-quvvatlashga chorladi. Binobarin, "Qozoq qardoshlarimga mak-tub" nomli esessi mintaqada o'sha davrning chinakam da'vatiga aylandi. Shuningdek, u xalqimizning ilmiga intilmaydigan, to'y va ma'rakalardan bo'shamaydigan toifasini keskin tanqid qildi.

Davlatimiz rahbari ushbu qaror orqali bugungi davr uchun Behbudiy g'oyalari, bu allomaga o'xshash fidoyi ziyolilar nechog'lik zarur ekanligiga ishora qilmoqda. Negaki millat ma'rifatiga sarmoya kiritish, uni qo'llab-quvvatlash zamonomizning eng savobli ishlardan biderid. Mahmudxo'ja Behbudiy ijodi, hayot yo'lini puxta o'rgangan rahmatli professor Begali Qosimov, bugungi kunda jadidlar faoliyatini keng tadqiq qilayotgan olimlar Halim Sayid, Qahramon Rajabov, Bahrom Irzayev va boshqalar ham bu jadid bobomiz millat kamoli yo'lida nechog'lik ulug' ishlarni qilganligini ta'kidlamoqda.

Kamina Mahmudxo'ja Behbudiy tashkil etgan gazetada bosh muharrir bo'lib ishlayotganidan faxlanaman va bu yumushning nechog'lik mas'uliyatlari ekanligini his qilaman.

**Farmon TOSHEV,**  
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist.



1913-yilda  
"Samarqand"  
(bugungi vorisi  
"Zarafshon")  
gazetasini tarqalagan  
hududlar



**Bizlarni**  
xonavayron, bevatani  
bandi qilgan tarbiyatsizlik  
hamda jaholatduri:  
bevatanlik, darbadarlik,  
asorat, farq-u zalolat va  
xorliklar hammasi ilmsizlik  
va betarbiyalikning  
mevasi natijasidir.

**Mahmudxo'ja  
Behbudiy.**

## "Turkiy bilgan kishi zamononi bilur"

Turkiston jadidlari sardori Mahmudxo'ja Behbudiy nomi dramaturg, noshir, "usuli savtiya" jadid maktabining asoschisi, mohir pedagog, darsliklar muallifi, "Behbudiya" kutubxonasi tashkilotchisi, jahongashta olim kabi yorliqlar bilan tarix sahifalaridan o'rinn oldi.



yoki lingvistikda nomi bilan ham yuritiladi, bunda nutq madaniyatiga va pedagogikaning bir qismi bo'lgan didaktika o'rta sidagi zich aloqa yaqqol namoyon bo'лади.

Mahmudxo'ja Behbudiy o'zbek lingvistikasi qatori tilimiz me'yoralashivi, nute madaniyatini rivojiga ham munosib hissa qo'shdi. Tilshunos olim Suyun Karimov o'zining "Behbudiy – o'zbek tilining jarchisi" maqolasida alomaning nutq madaniyatini va til me'yori masalalariga ham alohida e'tibor berganligiga to'xtalib o'tadi. Muallifning qayd etishicha, Behbudiy 1908-yilda yozgan "Kitobat ul-atfol" darsligida til amaliyoti e'tiborni qarabat, yozma nutqdagi, xususan, maktublardagi me'yoriy holatlarga doir mulohazalarini bayon qiladi. Ta'kidlaydi, yozadigan kishi o'z muddaosini yaxshi tushunsin, bilmaydigan so'zni yozmasin, yozvuda imlo qoidalariiga rioxha qilsin, chet so'zlarni qo'llashdan tiyilsin, o'qydigan odamni ham hisobga olsin, sodda va tushunari yozsın. Ko'rib turibdi, Behbudiy bolalarni yoshligidan nutq madaniyatiga e'tibor bo'lishga, ortiqcha so'zlarni ishlatsmaslikka, latif, quloqqa so'z qo'qadigan so'zlardan foydalananishga chaqiradi. Yoshlikdan to'g'ri yozish va barchaga ma'qul keladigan abadiy tilda yozish ko'nikmasini shaklantirish masalasini o'rtaq qo'yadi.

**ISSN-201667X**



## Xalqaro konferensiyanı yuksak saviyada o'tkazamız



Davlatimiz rahbarining Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludining 150 yilligini keng nishonlash to'g'risidagi qarorida 2025-yil oktabr oyida Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida "Mahmudxo'ja Behbudiy merosi va jadidlik harakatini o'rganishning dolzurb masalalari" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya tashkil qilish belgilangan.

Universitetimizda har yili muhim sanalar yoki ijtimoiy-siyosiy tadbirlar, ulug' allomalar, olimlar yubileyllari munosabati bilan bu kabi ilmiy anjumanlar o'tkaziladi. Bu tadbirlarda fanning ma'lum bir yo'nalishi yoki biror shaxs ilmiy faoliyatini bosh mavzu sifatida belgilanib, muhokama qilinadi.

Mahmudxo'ja Behbudiy

merosi va jadidlik harakatiga bag'ishlangan xalqaro ilmiy konferensiyaning yo'nalishi ham aniq belgilangan bo'sa-da, bu ulug' ajodidimiz merosining o'zi adaptib, dramaturgiya, ta'lim, jurnalistika va noshirlik, siyosiy arbobilik kabi ber necha yo'nalishni qamrab olishi, jadidlik harakatidagi faoliyat esa bundan ham serqirraligi bilan

ajralib turadi. Bu esa konferensiya qiziqish yuqori, taqdim etiladigan ma'rurzalar rang-barang va yangi ma'lumotlarga boy bo'lishini ko'rsatadi. Shuning uchun universite-

timida mazkur konferensiya tayyorgarlikni boshladik. Yurtimiz va xorijdagiligi ilmiy doiralarni bundan xabaridan qildi. Konferensiya nafaqat akademik doira, balki jamoatchilik uchun ham katta ahamiyatga ega. Bu tadbir Mahmudxo'ja Behbudiy asarlarini ilmiy jihatdan o'rganish, jadidlik harakati va uning umuminsoniy ahamiyatini yorishda tadqiqotchilar uchun yangi yo'nalishlar ochishga xizmat qiladi.

Ta'kidlash lozimki, Mahmudxo'ja Behbudiyning 150 yilligi keng nishonlanishi xalqimizning ma'rifatparvar alloma, mohir publisist, zukko dramaturg, muhtaram bir zotga bo'lgan ehtiromi, xalqimiz uchun ma'naviy yu'onişin va madaniy merosni qadrlash uchun muhim qadamdir.

**Mavion BOBOXONOV,**  
Sharof Rashidov nomidagi  
Samarqand davlat  
universiteti professori.



Mazkur maqolaning  
elektron shaklini ushbu  
QR-kod orqali  
o'qishingiz mumkin.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.  
**Korxona manzili:** Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqtiga:  
soat 18:30 da.  
Bosishga topshirildi:  
soat 19:00

**Navbatchi muharrir:**  
A.SHERZOLOV.

**Navbatchi:**  
T.SIDDIQOV.

**Sahifalovchi:**  
B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun  
QR-kodini telefoningiz  
orqali skanner qiling



Saytimizga o'tish uchun  
QR-kodini telefoningiz  
orqali skanner qiling

Sotuvda narxi kelishilgan holda